



## YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

**Yusupova Orzugul Ravshanbek qizi**

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

ORCID: 0009-0005-2753-9676

[dreamflower8894@gmail.com](mailto:dreamflower8894@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari, rivojlanish omillari va istiqbollari tahlil qilingan. Yashil iqtisodiyotga o'tishning global tendensiyalari, uning atrof-muhit va iqtisodiy barqarorlikka ta'siri ko'rib chiqilgan. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va istiqbolli yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilgan. Tahlil natijalari asosida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, resurs samaradorligi, ekologik innovatsiyalar, yashil kelishuv.

## ПРИРОДА ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ И ЕЕ ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

**Юсупова Орзул Равшанбек кизи**

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

**Аннотация.** В данной статье анализируются основные характеристики, факторы развития и перспективы зеленой экономики. Рассмотрены глобальные тенденции перехода к зеленой экономике, ее влияние на экологическую и экономическую стабильность. Особое внимание уделено мерам и перспективным направлениям развития зеленой экономики в Узбекистане. По результатам анализа сформулированы приоритеты и рекомендации по развитию зеленой экономики.

**Ключевые слова:** зеленая экономика, устойчивое развитие, возобновляемые источники энергии, ресурсоэффективность, экологические инновации, зеленая сделка.

## NATURE OF GREEN ECONOMY AND ITS MAIN CHARACTERISTICS

**Yusupova Orzugul Ravshanbek kizi**

Tashkent Textile and Light Industry Institute

**Abstract.** This article analyzes the main features, development factors and prospects of the green economy. Global trends in the transition to a green economy, its impact on the environment and economic stability have been considered. Particular attention is paid to the measures and promising directions implemented in Uzbekistan for the development of the green economy. Based on the results of the analysis, priorities and recommendations for the development of the green economy have been developed.

**Keywords:** green economy, sustainable development, renewable energy, resource efficiency, environmental innovation, green deal.

### **Kirish.**

Yer yuzida insoniyat paydo bo'libdiki, o'zining yashashi, faoliyat ko'rsatishi uchun zaruriy bo'lgan barcha boyliklarni tabiatdan oladi va shuning uchun ham insonlar tabiatni e'zozlab «ona tabiat» deyish odat tusiga kirgan. Lekin, vaqtlar o'tishi bilan insonlar tabiatdan nooqilona foydalana boshladi. Insoniyatning tabiatga ko'rsatadigan ta'siri orqali tabiiy boyliklardan rejasiz foydalanishi oqibatlarini XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib salbiy natija ko'rsata boshladi va tabiat inson ko'magiga muhtoj bo'lib qoldi. Insonning tabiatdan foydalanish faoliyati XX asr boshlariga qadar mahalliy va keyinroq esa mintaqaviy xususiyatga ega bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda u butun kurrai zaminni qamrab olib globallikni kasb etmoqda.

Tabiatdan foydalanishdagi mavjud kamchiliklar ustida fikr yuritadigan bo'lsak unga, eng avvalo, tabiatni o'zlashtirishdagi ommaviy ishlarda ham, ilmiy tadqiqotlarda ham bir tomonlama yondashilayotganini ko'ramiz. Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish murakkab muammo bo'lib, uning hozirgi bosqichi ekologik ongini oshirish va insonning tabiatga bo'lgan salbiy ta'sirini kamaytirish nuqtai nazaridan kelib chiqadigan bo'lsak, tabiiy ilmiy nazariyasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

XXI asrga kelib tabiat bilan bog'liq ekologik muammolarni dunyo miqyosida birgalikda hal qilish tobora ommalashmoqda. Bu tabiatga nisbatan umumbashariy qarashning shakllanishiga bevosita yordam beradi.

Hozirgi kunda BMTning mavjud 14 ta ixtisoslashgan tashkilotlaridan 6 tasi atrof-muhit muhofazasiga aloqador masalalar bilan alohida shug'ullanib kelmoqda «Barqaror rivojlanish konsepsiyasi» ham shu maqsadlarga xizmat qiladi. Barqaror rivojlanish maqsadlari BMT tomonidan 2012 yilda ishlab chiqilgan va taklif etilgan dastur bo'lib, ushbu dastur insonlarning farovon turmush tarzini yaratishga xizmat qiluvchi iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. 2015 yil 25-27 sentyabr kunlari davlat va hukumat rahbarlari ishtirokida bo'lib o'tgan Sammitda aynan Barqaror rivojlanish masalasi kun tartibiga qo'yildi va yaqin 15 yilga mo'ljallangan tadbirlar rejasi e'lon qilindi. Mazkur maqsadlar BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan 2015-2030 yillarda amalga oshirilishi kun tartibiga kiritilgan bo'lib, unda dunyo mamlakatlarining etakchilari dunyoning barcha nuqtalarida barcha global muammolarga batamom barham berishga va'da qilishi kutiladi (Qaror, 2019).

O'zbekistonning strategik maqsadi ham ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishning resurslar tejamkorligiga asoslangan «yashil» iqtisodiy rivojlanish modeliga o'tish.

Mamlakatimizda ham ekologik muammolarni hal qilish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida muhim qadamlar tashlanmoqda. Bugungi kunda inson faoliyatining tabiatga bo'lgan ta'siri va global iqlim o'zgarishlari barcha davlatlarning iqtisodiyot tizimlarini yashillik nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqishini talab qilmoqda.

Hozirda barqaror rivojlanishning asosi sifatida «yashil iqtisodiyot» qaralmoqda va uni rivojlantiruvchi kuch «yashil» texnologiyalarga kiritilayotgan investisiyalar hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar energiya va resurslarning tejamkorligi, uglerod chiqindilarini kamaytirishni, muqobil energiya manbalaridan foydalanishni, organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishni, chiqindilarni qayta ishlashni, umuman olganda iqtisodiyotning tabiat va atrof-muhitga zarar keltirmasdan rivojlantirishiga hamda insoniyatning ekologik xavfsizligini ta'minlashiga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

XX asr oxirlariga kelib, 1983 yilda Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha Butunjahon komissiyasi tashkil etildi. Tashkil etilgan komissiya jamoasi uch yil davomida dunyodagi iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va ekologik omillarning o'zaro ta'siri va aloqadorligi masalalarini o'rgandi. Mazkur jarayon «barqaror rivojlanish» (sustainable development) tushunchasini keng ommalashtirishga xizmat qildi.

«Yashil» iqtisodiyotning rivojlanish bosqichiga nazar tashlaydigan bo'lsak, «yashil» iqtisod – bu XX asr oxirida yuzaga kelgan iqtisodiy yo'nalish bo'lib, u iqtisodiy faoliyatning

atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish zarurligini nazarda tutadi. "Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisod fanining ekologiya, tabiatdan foydalanish va atrof-muhit iqtisodiyoti kabi sohalari bilan integrasiyalashgan holda "yashil iqtisodiyot" tushunchasi paydo bo'la boshladi.

"Yashil" iqtisodiyotning mazmun va mohiyatini Buyuk Britaniyalik iqtisodchi olimlar D.Pirs va E.Barbierlar o'zlarining "Yashil" iqtisodiyot uchun reja (Blueprint for a Green Economy)" nomli asarida birinchilardan ochib berilgan (Тол, 2009).

"Yashil iqtisodiyot" tushunchasiga ko'plab olimlar, tadqiqotchilar o'z ta'riflarini bayon etishgan, nisbatan to'liq ta'rif UNEP tomonidan taklif etilgan bo'lib, "yashil iqtisodiyot" – bu "insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish"ga olib keluvchi iqtisodiyotdir (Штайнер, Айрис, и др: (2011).

**Richard Tol** (2009) ekologik iqtisodchi olim, u yashil soliqlar va ekologiyaga asoslangan tariflarni joriy qilish konsepsiyalarini rivojlantirgan. U resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarini kamaytirish va ekologik zararni cheklash uchun fiskal instrumentlardan, ya'ni ekologik soliqlardan foydalanishni tavsiya qilgan.

XXI asr boshida BMTning «Global yashil yangi kurs» konsepsiyasi atrof -muhit dasturi (2009 yil) taklif etildi (Доклад, ЮНЕП, 2009).

Vahobov va Xajibakievlar (2020) "Yashil" iqtisodiyotga o'tishda O'zbekiston energiyadan foydalanish samaradorligiga erishish, "yashil" energetikaga o'tish, er usti transportlarini elektrlashtirish, chiqindilarni oqilona boshqarish, ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash, SO2 uglerod gaz chiqindilarni yumshatish, iqlim o'zgarishiga moslashish va bioxilma-xillikni saqlab qolish" kabi masalalarga katta e'tibor qaratish kerakligini ta'kidlaydilar.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Yashil iqtisodiyot xususiyatlari va rivojlanish omillarini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Iqtisodiyotning shunday yo'nalishi borki, energiya va resursni tejashga, atmosferaga uglerod chiqarishni kamaytirishga, sof energiyadan foydalanuvchi transportga, energiyaning muqobil manbaalariga, organik qishloq xo'jaligiga asoslanadi, bu ham bo'lsa "yashil" iqtisodiyotdir.

"Yashil" iqtisodiyot – bu kelajak iqtisodiyoti bo'lib, XXI asr iqtisodiy taraqqiyotining harakatga keltiruvchi kuchi bo'lishi kerak. Bizga ma'lumki, iqtisodiy o'sishning an'anaviy modeli mavjud lekin "yashil" iqtisodiyot– bu umumjahon strategiyasi hisoblanadi, u nafaqat alohida milliy iqtisodiyotlarning, balki global iqtisodiyotning barqarorligini belgilab beradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (Atrof-muxit bo'yicha dastur – United Nations Environmental Programm – UNEP-YuNEP; Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiya – ESKATO va hokazolar), Global "yashil" o'sish instituti (Global Green Growth Institute – GGGI) kabi xalqaro tashkilotlar va ko'plab boshqa tashkilotlar "Yashil" o'sish strategiyasini va taktik dasturlarni amalga oshirishda barcha davlatlarning faol ishtirok etishini targ'ib qilib kelmoqda.

UNEP tashkiloti tomonidan "yashil iqtisodiyot"ni iqtisodiyotning bir yo'nalishi deb ta'riflaydiki, unda u uzoq muddatli istiqbolda insonlar farovonligini yaxshilaydi, ijtimoiy

tengsizlikni kamaytiradi va bo'lg'usi avlodlar uchun ekologik havflar hamda taqchillikni jiddiy ravishda kamaytiradi.

### **Resurslardan oqilona foydalanish**

Innovasion texnologiyalardan foydalanish orqali chiqindi chiqishini kamaytirish, sirkulyar iqtisodiyotga o'tish.

### **Energiyadan foydalanish samaradorligini oshirish**

Energiya tejamkor texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni.

### **“Yashil” texnologiyalarni joriy etish**

Ekologiyaga salbiy ta'sir etkazmaydigan texnologiyalarga ko'proq investisiya kiritish va rivojlantirish.

### **“Yashil” ish o‘rinlarini yaratishga alohida e’tibor qaratish**

"Yashil" texnologiyalardan foydalanuvchi tarmoqlarni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish.

### **Ekologik yo‘nalishdagi investisiyalar hajmini oshirish**

Ekologik yo‘nalishdagi loyihalarga investisiyalarni keng jalb qilish va samaradorligini baholab borish.

### **Ekologiya bo‘yicha ta’lim va ongni rivojlantirish dastaklarini qo‘llash**

Ekologiya sohasi bo‘yicha aholi madaniyatini oshirish, ta'lim berish, targ'ibot va tushuntirish ishlarini jadallashtirish.

### **1-rasm. “Yashil” iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlari**

*Manba:* muallif tomonidan shakllantirildi.

Shunga alohida e'tibor qaratish kerakki, har bir mamlakat o'zining iqtisodiy holati, joylashgan makoni, tabiiy va mehnat resurslaridan foydalanish imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'zining "yashil" iqtisodiyot dasturini yaratadi va amalga oshiradi. Sababi, dunyo mamlakatlari uchun namuna bo'ladigan "yashil" iqtisodiyot modeli mavjud emas.

1-jadval

## Xorij mamlakatlarida "yashil" iqtisodiyot modelini amalga oshirish

"Yashil" iqtisodiyot dasturi	Dasturni amalga oshirishdagi vazifalar
<b>Yevropa Ittifoqi (EI)</b>	
<b>Yashil kelishuvga erishish</b>	EI iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda barcha imkoniyatlaridan foydalangan holda 2050 yilgacha "uglerod neytralligi"ga erishish maqsadida "Yashil kelishuv" strategiyasini qabul qildi va taktik vazifalarni amalga oshirish.
<b>Sirkulyar(siklli) iqtisodiyotni rivojlantirish</b>	Sanoat korxonalarida resurslarni samarali boshqarish va chiqayotgan chiqindilarni yuqori darajada qayta ishlash orqali tabiatga bo'layotgan salbiy ta'sirni kamaytirish dasturlaridan foydalanish.
<b>Qayta tiklanuvchi energiya manbaalarini rivojlantirish</b>	Qayta tiklanuvchi energiya manbaalari bo'lgan quyosh, shamol va gidroenergetika kabi qayta tiklanuvchi manbalarga katta e'tibor qaratish.
<b>Janubiy Koreya</b>	
<b>Yashil taraqqiyot milliy strategiyasi</b>	2009 yilda "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun milliy strategiya ishlab chiqilgan va ushbu strategiya energetika sohasidagi innovatsiyalarga asoslanish.
<b>Qayta tiklanuvchi energiya yo'nalishidagi texnoparklarni rivojlantirish</b>	Mamlakat ekologiyaga zarar etkazmaydigan "yashil" ishlab chiqarish innovatsion texnologiyalarini rivojlantirishga ko'proq investisiya kiritish.
<b>Xitoy</b>	
<b>"Yashil" energetika</b>	Mamlakat xududini chuqur tahlil etgan holda tog'li va cho'l xududlariga quyosh panellarini, shamol yo'laklariga shamol energiyasi ishlab chiqaruvchi qurilmalarni o'rnatish.
<b>"Yashil" texnologiyalar</b>	Mamlakatda elektromobillardan ko'proq foydalanish, sanoat korxonalarida elektr energiya kam sarf qiluvchi texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi elektr energiya ishlab chiqaruvchi infratuzilmalarga ko'proq investitsiyalarni jalb qilish.

O'zbekistonda ham "yashil" iqtisodiyotga o'tish imkoniyatlari va asosi o'ziga hos bo'lib, boshqa davlatlardan tabiiy resurslarga boyligi, yil davomida o'rtacha 300-320 quyoshli kun va haroratning o'rtacha miqdori +42 s bo'lishi, kunning uzunligi 16 soatni tashkil etishi bilan ajralib turadi. O'zbekistonning «Yashil» iqtisodiyot tizimiga o'tish imkoniyati etarlicha manbaga ega bo'lganligi uchun mamlakatimiz "yashil" iqtisodiyotga o'tishda o'z milliy strategiyasiga ega bo'lib, ushbu strategiya quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda muqobil energiya manbalaridan keng foydalanish;
- uy-joy-kommunal xo'jaliklarida energiya samaradorligini oshirish;
- qishloq xo'jaligida organik mahsulotlarning ishlab chiqishini ommalashtirishda xorij tajribalaridan foydalanish;
- chiqindilardan mahsulot va biogaz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish;
- aholining toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish.



“Yashil iqtisodiyot” atrof muhitni, bioxilmaxillikni va ekotizim xizmatlarni saqlash, “yashil” ish o‘rinlari tashkil etish imkoniyatini va qashshoqlik muammosi hal etilishini ta’minlovchi barqaror taraqqiyot masalalarini qamrab oladi.

Yuqoridagi “yashil” iqtisodiyot strategiyalariga asoslanib, real sektor korxonalariga yashil iqtisodiyotga o‘tishda quyidagi tavsiyalarni berishimiz mumkin:

Birinchi, korxonalar va tashkilotlar “yashil” iqtisodiyot bo‘yicha strategik dastur ishlab chiqishi, ushbu dastur avvalo, atrof-muhitga zarar keltirmaydigan ishlab chiqarish usullarini, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiyani tejashga qaratilgan strategik rejalarni o‘z ichiga olishi zarur.

Ikkinchi, korxonalar ishlab chiqarish jarayonida energiya tejamkorligiga intilishlari lozim. Buning uchun energotexnologiyalar va energetik samaradorlikni oshirishga qaratilgan qadamlar ishlab chiqilishi kerak.

Uchinchi, “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda innovatsiyalar katta rol o‘ynaydi, ekologiyaga zarar etkazmasdan yangi texnologiyalardan foydalanishga e’tibor berishlari, ya’ni energiya tejovchi va atrof-muhitga zararsiz texnologiyalarga investisiya kiritishlari lozim.

To‘rtinchi, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni qayta ishlashga katta ahamiyat berish zarur. Qayta ishlangan materiallar va mahsulotlar ishlab chiqarishda keng qo‘llanilishi kerak.

Beshinchi, qayta tiklanuvchi energiya manbaalariga, masalan, quyosh energiyasidan foydalanish, elektr energiyasini ishlab chiqarishda kam zarar keltiradigan texnologiyalarni joriy etish kerak.

Oltinchi, atrof-muhitga e’tibor berish bilan birga, ijtimoiy barqarorlikni ham ta’minlashlari kerak. Yashil iqtisodiyotga o‘tish shunchaki ekologiyaga emas, balki ijtimoiy yaxshilanishga ham xizmat qilishini ta’minlashi muhim.

### **Xulosa va takliflar.**

“Yashil” iqtisodiyot — bu iqtisodiy rivojlanishning bir ko‘rinishi bo‘lib, u barqarorlik, ekologiyani asrash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy taraqqiyotga yo‘naltirilgan iqtisodiyotdir. Ushbu konsepsiya iqtisodiy o‘tishni ta’minlash, ekologik zararsiz va barqaror rivojlanishga qaratilgan. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish — bu tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirishni anglatadi.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish faqat ekologik jihatdan emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham muhimdir. U resurslarni tejash, atrof-muhitni muhofaza qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va kelgusi avlodlarga qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan muhim qadam hisoblanadi. Shunga muvofiq, davlatlar va korxonalar ushbu yo‘nalishdagi investitsiyalar, qonunchilik va siyosatlarni yanada rivojlantirishga ahamiyat berishni talab etadi.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda quyidagi qadamlarni tashlash maqsadga muvofiqdir:

➤ **Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish**-mamlakatlar, shu jumladan, O‘zbekistonda quyosh, shamol va biomassa energiyasini ishlab chiqarish loyihalarini rivojlantirish kerak. Bu nafaqat ekologik, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi.

➤ “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun chiqindilarni qayta ishlash, resurslarni tejash va ekologik xatarlarni kamaytirishga qaratilgan sirkulyar iqtisodiyot modellarini yaratish zarur. Bu erda ishlab chiqarishda qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish va chiqindilarni qisqartirishga alohida e’tibor qaratish muhim.

➤ “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda ekologik soliqlar, yashil tariflar va subsidiyalar sistemasini o‘rnatish maqsadga muvofiq. Bu orqali korxonalar ekologik samaradorlikka yo‘naltirish, chiqindilarni kamaytirish va energiyani tejashga bo‘lgan harakat tezlashadi.

➤ “Yashil” iqtisodiyot sohasida yangi texnologiyalar ishlab chiqarish va ish o‘rinlarini yaratish. Yangi ekologik texnologiyalarning rivojlanishi ishlab chiqarishda, energetika va transportda ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

➤ “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishning global muammo ekanini hisobga olib, xalqaro hamkorlik va texnologiyalar almashish juda muhim. Bu, ayniqsa, barqaror rivojlanish va ekologiyani himoya qilishga yo‘naltirilgan investisiyalar bilan qo‘llab-quvvatlanadi. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish — bu yangi iqtisodiy modellarni joriy qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali barqaror rivojlanishga erishishning muhim qadami hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar / Literatura/Reference:**

Qaror (2019) 2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiklash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi PQ-4477-son qarori.//Lex.Uz.

Vaxobov A.V. va boshq. (2020) “Yashil” iqtisodiyot. Darslik. – T., – 295 b.

Доклад, ЮНЕП, (2009) Глобальный зелёный новый курс. [www.unep.org/greeneconomy/portals/30/docs/GGNDpolicy-brief-Russian.pdf](http://www.unep.org/greeneconomy/portals/30/docs/GGNDpolicy-brief-Russian.pdf)

Тол, Ричард С. Дж. (2009). «Экономические последствия изменения климата». Журнал экономических перспектив, 23 (2): 29–51 . DOI: 10.1257/jep.23.2.29.

Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др: (2011) Навстречу «зелёной» экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др: ЮНЕП/Грид Арендаль, С. 17.